



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

LEKSIKOLOGIYA BO'LIMLARI

Xakimboyeva O.K.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

Abdusharipova M.M.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Tarjimonlik fakulteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi – leksikologiya fanining mohiyati, uning asosiy bo'limlari va ularning o'zaro bog'liqliklarini keng yoritishdan iborat va shuningdek, leksikologiyafanda tutgan o'rni haqidagi tushunchalari va leksikologiyada so'zlar mohiyati tuzilishi haqidagi fikrlar qayd etiladi.

Kalit so'z: leksikologiya, til, tilshunoslik, fan, leksikografiya, frzeologiya, semasologiya, semantika, etimologiya, stilistika.

Ma'lumki, yer yuzida yashovchi xalqlar xilma – xil tillarda gaplashishadi. Zaminimizda hammasi bo'lib taxminan besh mingdan ziyod sheva mavjud bo'lib hozirgacha ulardan 500 tasigina o'rganilgan xolos. Mana shu o'rganilgan tillarning barchasi leksikologik jihatdan ham o'rganiladi.

Til – inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining muhim vositasidir. Tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan *leksikologiya* tilning lug'at boyligini, ya'ni so'zlar tizimini, ularning ma'nosi, kelib chiqishi va o'zaro munosabatlarni o'rganadi.

Leksikologiya so'zlarning semantik ma'no strukturaviy va funksional jihatlarini tahlil qilib, tilning rivojlanishi jarayonida yordam beradi.

Leksikologiya so'zi yunoncha *lexicos* – “lug'aviy birlik”, *logos* – “ta'limot, bilim” ma'nolarini bildiruvchi so'zlardan olingan bo'lib, tilshunoslikning so'z va so'zga teng keluvchi lug'aviy birliklar, aniqrog'i, tilning lug'at boyligini o'rganuvchi bo'limidir. Har bir tilning lug'at tarkibi, ya'ni undagi barcha so'zlar majmui leksika deb yuritiladi. Shu bois “leksika” termini adabiy tilning lug'at tarkibini ifodalash bilan birga, ma'lum bir kasb-hunar yoki sohaga oid lug'at tarkibi ma'nosida ham, shuningdek, ayrim yozuvchi asarlari tilini ifodalashda ham qo'llanadi. Masalan, “Alisher Navoiy asarlari leksikasi” kabi birikmalarda ushbu termin ma'lum muallif asarlaridagi so'zlar majmuini anglatadi.





Leksikologiya leksikani o'rganadi va bu tizim so'zlardan hamda so'z birikmalaridan tashkil topadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya (semantika), etimologiya, stilistika hamda so'z yasalishi kabi bo'limlari bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, u so'zlarning ma'no jihatdan o'zaro munosabatlarini, ya'ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so'z ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda qo'llanishi kabi masalalarni ham o'rganadi. Leksika muayyan tizim sifatida qaralganda, undagi so'z ma'nolari va tushunchalarning o'zaro bog'liqligi nazarda tutiladi.

Leksikologiya lug'at tarkibining amalda qo'llanishi va taraqqiyot qonuniyatlarini, shuningdek, so'zlarning uslubiy jihatdan tasniflanish tamoyillarini ishlab chiqadi.

Tilning lug'at tarkibi va uni tashkil etuvchi so'zlar bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Leksikologiya ana shu umumiy xususiyatlarni ilmiy jihatdan o'rganadi. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Avvalo, lug'at tarkibini tashkil etuvchi har bir so'z ma'noga ega bo'ladi. So'zning ma'nosi bilan bog'liq masalalar leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

2. Har qanday til taraqqiyotida uning eng o'zgaruvchan va eng tez rivojlanuvchi qismi leksikadir. Til taraqqiyoti jarayonida lug'at tarkibi yangi so'zlar hisobiga boyib boradi, ayrim so'zlar esa eskiradi yoki iste'moldan chiqadi. Demak, lug'at tarkibi yangi va eski qatlamlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

3. Lug'at tarkibidagi so'zlar qo'llanish doirasiga ko'ra ham farqlanadi. Ayrim so'zlar umumxalq iste'molida qo'llansa (masalan: suv, non, katta, yugurmoq), ayrimlari ma'lum hudud, kasb yoki ijtimoiy qatlam doirasida chegaralangan holda ishlatiladi.

4. So'zlar nutq uslublariga munosabatiga ko'ra ham farqlanadi. Ba'zi so'zlar uslubiy jihatdan betaraf bo'lsa (masalan: osmon, ichmoq, quchoq), ayrimlari muayyan uslubga xos bo'ladi. Masalan, "og'ush" so'zi ko'proq badiiy uslubda qo'llanadi.

5. Har bir so'z tovush shakli va ma'noga, ya'ni shakl va mazmunga ega. Lug'at tarkibidagi so'zlar shakl va mazmun jihatidan turli munosabatlarni hosil qiladi. Masalan, *chaqqon*, *epchil*, *abjir*, *chaptast* so'zlarining shakli turlicha bo'lsa-da, ma'nosi yaqin bo'lib, ular sinonim so'zlar hisoblanadi.

So'zlar haqida qayd etilgan barcha xususiyatlar tildagi barcha so'zlarga taalluqli hisoblanadi. Leksikologiyada ham, asosan, ana shu turdagi so'zlar va ularning xususiyatlari o'rganiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa so'zlardan tashkil topadi. Shu sababli, avvalo, so'zning o'zi, uning mohiyati va til tizimidagi o'rni haqida to'xtalib o'tish zarur. Ayrim ilmiy manbalarda so'z "asosiy til birligi", "til va nutqning eng muhim elementi" yoki "tilning eng kichik mustaqil birligi" tarzida umumiy ta'riflanadi. Biroq so'z aslida nihoyatda murakkab





lingvistik hodisa hisoblanadi. Uni ikki-uch jumla orqali to'liq va mukammal ta'riflash mushkul. Shu sababli ham tilshunoslik adabiyotlarida so'zga barcha jihatlarini qamrab oluvchi yagona va mukammal ta'rif berish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

So'z til birligi sifatida murakkab xususiyatga ega ekan, unga umumiy ta'rif berishdan ko'ra, uning o'ziga xos tomonlari va boshqa til hodisalaridan farqlovchi belgilarini yoritish muhimroqdir.

Leksikologiya tilshunoslikning lug'at tarkibini o'rganuvchi bo'limi bo'lib, uning tarkibiga bir necha mustaqil yo'nalishlar kiradi. Ular quyidagilar:

1. Semasiologiya (semantika) – so'zlarning lug'aviy ma'nolarini o'rganadi. Ushbu bo'limda quyidagi hodisalar tadqiq qilinadi: polisemiya; sinonimiya; antonimiya; omonimiya.

2. Frazologiya – tilning barqaror so'z birikmalarini, ya'ni frazeologizmlarni o'rganadi. Shuningdek, iboralar, maqol va matallarni tahlil qiladi.

3. Leksikografiya – lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi.

4. Etimologiya – so'zlarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti hamda o'zlashma so'zlarni o'rganadi.

5. Onomastika – atoqli otlarni, ya'ni kishi nomlari, joy nomlari, geografik obyektlar nomlarini tadqiq etadi.

6. Onomasiologiya – narsa va hodisalarga nom berish jarayonini o'rganadi.

7. Etnonimika – xalq va millat nomlarini tadqiq qiladi.

8. Terminologiya – ilm-fan va kasb-hunarga oid terminlarni o'rganadi. U ikki asosiy guruhga bo'linadi: a) ilmiy terminlar; b) kasb-hunarga oid terminlar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, leksikologiya til tizimining eng muhim qatlamlaridan biri bo'lib, u boshqa lingvistik fanlar bilan uzviy bog'liqdir:

grammatika bilan – so'zlarning shakli xususiyatlari orqali;

stilistika bilan – nutq uslublari orqali;

fonetika bilan – talaffuz va tovush tizimi orqali bog'lanadi.

Leksikologiyaning bo'limlari bir-birini to'ldirib boradi. Masalan, semasiologiya so'z ma'nosini o'rgansa, etimologiya uning tarixiy kelib chiqishini ochib beradi, leksikografiya esa ushbu bilimlarni lug'at shaklida tizimlashtiradi.

Zamonaviy davrda leksikologiya nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U lug'atlar yaratish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish, til o'qitish metodikasini rivojlantirish hamda madaniyatlararo kommunikatsiyani o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, so'z nihoyatda murakkab xususiyatlarga ega bo'lgan til birligidir. U o'zining muhim belgi va xususiyatlari bilan tilshunoslikning turli bo'limlari uchun tadqiqot obyekti hisoblanadi. Leksikologiya esa tilning lug'at boyligini o'rganadigan muhim lingvistik fan bo'lib, uning asosiy bo'limlari semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya, onomasiologiya va onomastikadan iboratdir. Mazkur bo'limlar tilning lug'aviy tizimini har tomonlama tadqiq etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bobojonov Musajon. Jahon tillari haqida. – Toshkent: Fan, 1998. – 45 b.
2. O'rinboyev Bozorboy. Leksikologiya. – Toshkent: Fan, 2000. – 73 b.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1- jild. – Toshkent: Fan, 1966. – 132 b.

